



ARAB TILIDA ISM SO‘Z TURKUMIGA OID SO‘ZLARNING TUSHUM KELISHIGIDA KELISHI

Zilola Toirova

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Dinshunoslik” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilidagi kelishiklar haqida umumiy ma’lumotlar berilib, qo‘shimcha tarzda ism so‘z turkumiga oid so‘zlarning nasb holatida (tushum kelishigida) kelish o‘rinlari haqida, misollar yordamida tushunchalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Rof, nasb, jar, maf‘ul bihi, maf‘u‘l mutloq, tamyiz, munado

Jahondagi har bir tilning o‘z tarixi, taqdiri, jamiyat hayotida tutgan o‘rni va mavqei mavjud. Jahon tillari o‘zining genetik jihati, tipologiyasi, ijtimioy mohiyati, o‘tmishi, yozuv tarixi, unda so‘zlashuvchilarning umumiy miqdori kabi belgilari bilan o‘zaro farqlanadi. Ular ichida arab tili ham o‘zining juda qadim tarixga ega ekanligi, serqirra va ilmiy manbalarga boyligi bilan ajralib turadi. Arab tili grammatikasi shu qadar mukammal mantiqqa asoslanganki, bu tilni tadqiq qilish mobaynida uning grammatikasidagi biror qoida o‘z-o‘zidan kelib qolmaganligi, har narsa bir ta’sir etuvchi omil yuzasidan mavjudligi va jamiki qoida, atama va lingvistik predmetlarning o‘z daqiq o‘rni borligini ko‘rish mumkin. Arab tilining qonun-qoidalari tizimi – nahv ilmini yaratgan va kamolga yetkazgan olimlar orasida Mahmud Zamaxshariy muhim o‘rin egallaydi.



Har bir tilda otni otga yoki otni fe'lga bog'lab, gap bo'laklari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirib keladigan kelishiklar mavjud. Xususan, arab tilida ham kelishiklar mavjud bo'lib, ular farqli ravishda uch turga bo'linadi. Bular:

1. Bosh kelishik (Rof);
2. Qaratqich kelishigi (Jar);
3. Tushum kelishigi (Nasb).

Ismlarni uch kelishikda turlash jadvali:

Holat	Kelishik	Muzakkar	Muannas	Kelishik qo'shimchasi
Noaniq	Bosh	كِتَابٌ	مَدْرَسَةٌ	ـٌ (-un)
	Qaratqich	كِتَابِ	مَدْرَسَةِ	ـِ (-in)
	Tushum	كِتَابًا	مَدْرَسَةً	ـًا (-an)
Aniq	Bosh	الْكِتَابُ	الْمَدْرَسَةُ	ـُ (-u)
	Qaratqich	الْكِتَابِ	الْمَدْرَسَةِ	ـِ (-i)
	Tushum	الْكِتَابَ	الْمَدْرَسَةَ	ـَ (-a)

Jadvalga izoh: Agar so'z tanvin fathaga tugasa uning oxiriga o'qilmaydigan alif harfi yoziladi. Amma "ta-marbuta" yoki yolg'iz "hamza" so'z oxirida tanvin fatha bilan kelsa undan keyin bu alif yozilmaydi.

Yuqoridagi jadvaldan ismlarning uch kelishikda turlanishi, tartibi ma'lum bo'ldi. Endigi o'rinda ismlar qaysi o'rinlarda nasb holatda bo'lishi ko'rib chiqiladi. Demak, mansub ismning asl nasblik alomati "fatha" ekan. Lekin ba'zi o'rinlarda fathaga o'rinbosar o'laroq "asmaul-xomsa"da "alif", "jam muannas solim" (muannas to'g'ri ko'plik) da "kasra", ikkilik va "jam muzakkar solim" (muzakkar to'g'ri ko'plik)da "ya:un" nasblik alomati bo'lib keladi. Masalan:

أَكْرَمْتُ مُحَمَّدًا وَابْنَهُ وَعَمَاتِهِ وَخَادِمَهُمْ.

Ismlar quyidagi 11 o'rinda nasb holatida bo'ladi:

1. **Maf'ul bihi** (To'ldiruvchi);



Foilning fe'li uning ustida bajarilgan kishini yoki narsani bildirgan ismdir. Ya'ni bajarilmish ish. U foil kabi mufrod, musanna, jam'da, muzakkar, muannasda, ismi zohir, ismi zamirda bo'ladi. Masalan:

اَحْتَرَمْتُ اَبَاكَ وَاَحْبَبْتُ اَخَاكَ - لَنْ يَغْلِبَ عُسْرُ يُسْرَيْنِ (bitta maf'ul bihi)

ظَنَنْتُ السَّحَابَ مُمَطِّرًا - يُلْفِي الْعَاقِلُ الْكِتَابَ سَمِيرًا (asli muftado va xabar bo'lgan ikta maf'ul bihi)

أَعْطَيْتُ السَّائِلَ دِرْهَمًا - يُلْبِسُ الْجُلْمُ الْإِنْسَانَ وَقَارًا (asli muftado va xabar bo'lgan ikta maf'ul bihi)

2. Maf'ul mutlaq (Mutloq to'ldiruvchi/masdar);

Fe'lni ta'kidlash uchun, yoki turini bayon qilish uchun yoki sonini bayon qilish uchun fe'l so'ngida keltirilgan masdar. Masalan:

أَسْعَى إِلَى الْعِلْمِ سَعْيًا - (ta'kidlash uchun)

قُلْ قَوْلًا سَدِيدًا، وَافْعَلْ فِعْلًا حَمِيدًا - (turini bayon qilish uchun)

دَقَّ الرَّئِيسُ الْجَرَسَ دَقَّتَيْنِ - (sonini bayon qilish uchun)

3. Maf'ul liajlihi (Sabab-maqsd holi);

Fe'lning sababini va nima uchun ishlanganini bildirish uchun fe'l so'ngidan kelgan ism.

Uni bilish uchun fe'lning oldiga "لِمَ" (nima uchun?) savolini qo'yish kerak. Masalan:

زُيِّنَ الْبَيْتُ إِكْرَامًا لِلضُّيُوفِ - وَقَفْتُ الْجُنْدُ إِجْلَالًا لِلْأَمِيرِ

4. Maf'ul fiyhi (O'rin-payt holi);

Fe'lning qay vaqtda yoki qaysi o'rinda sodir bo'lganini ko'rsatuvchi ism. Masalan:

تَرَكْتُ الْكِتَابَ فَوْقَ الْكُرْسِيِّ - عَاشَ نُوحٌ دَهْرًا، وَدَعَا قَوْمَهُ حَيًّا

5. Maf'ul ma'ahu (Birgalik to'ldiruvchisi);

"مع" ma'nosida bo'lgan "vov" dan oldin kelib, fe'lning unga munosabatli bo'lishini va u bilan barobar qilinishini ko'rsatgan ism. Masalan:

حَضَرَ سَعِيدٌ وَغُرُوبُ الشَّمْسِ - سِرْتُ الْقَوْمَ وَالنَّيْلَ

6. Mustasno bi illa;

"إِلَّا" dan keyin kelib, "إِلَّا" ning oldidagi jumla ma'nosining hilofini bildirgan ism. Masalan:

مَا جَنَيْتُ الزَّهَرَ إِلَّا وَرَدَةً - يَنْقُصُ كُلُّ شَيْءٍ بِالْإِنْفَاقِ إِلَّا الْعِلْمُ (musbat)

7. Hol;



Fe'l voqe' bo'lgan vaqtda foilning yoki maf'ulning qay holda yoki qanday ravishda bo'lganini bildirgan ism. Hol doimo nakra hold abo'ladi. Ba'zida jumla bo'lib ham keladi. Masalan:

- إذا اجْتَهَدَ الطَّالِبُ صَغِيرًا سَادَ كَبِيرًا - (foilning holati uchun)
 لا شَرِبْتُ الْمَاءَ مَكْشُوفًا - (maf'ulning holati uchun)
 لا تَحْكُمُ، وَأَنْتَ غَضْبَانُ - (jumla ko'rinishidagi hol)

8. Tamyiz;

Turli narsalarga maqsad bo'lishga yaragan bir ism so'ngidan kelib, shu ismdan maqsad nima ekanini belgilash uchun zikr qilingan ism. Masalan:

- خَيْرُ الْأَعْمَالِ أَعْجَلُهَا عَائِدَةً وَأَكْثَرُهَا فَايِدَةً - (malhuz)
 زَكَاةُ الْفِطْرِ صَاعٌ قَمْحًا - (malfuz)

9. Munodo;

Nido (chaqirish) uchun maxsus harflarning biri so'ngidan kelib, chaqirilgan kimsaning so'zlovchiga iltifot qilishi va so'zlanajak so'ga diqqat etishi talab qilingan ism. Masalan:

- يا عَبْدَ اللَّهِ - (muzof) يا غلامُ - (maqsuda)
 يا أَخِيَّ الضَّعِيفِ - (shibhu muzof) يا صَادِقُ - (alamu mufrod)
 يا حَلِيمًا لَقَدْ آلَفَتْ الْقُلُوبَ - (g'oyru maqsuda)

10. Xobaru kana va axovatuha;

كان muftado va xabarga kirib, xabarni mansub qiladigan fe'ldir.

- كان الْجَوْ مُعْتَدِلًا - أَمْسَى الْعِلْمُ بَيْنَهُمْ أَرْفَعَ الْأَشْيَاءِ قِيَمَةً -

11. Ismu inna va axovatuha;

إن muftado bilan xabarga kirib, muftadoni mansub qiladigan harfdir.

- إِنْ يَكُنِ الشُّغْلُ مُجْهِدَةً، فَإِنَّ الْفِرَاعَ مَفْسَدَةً - لَا قَلِيلَ حَيَاءٍ مَحْبُوبٌ -

Ushbu sanab o'tilgan ismning 11 o'rinda nasb holida kelishi ko'plab kitoblarda kelgan. Lekin ba'zi kitoblarda ularning soni, ketma-ketligi bo'yicha kichik farqlarni ko'rish mumkin. Jumladan "Ajrumiya" kitobining Mutammima sharhida ularning soni 15ta keltirilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan farqli ravishda unda munodoni fe'li hafz qilingan



deb, maf'ul bihi tarkibiga kiritilgan. Qo'shimcha ravishda "mushabbahatu bimaf'ul bihi", "xobaru hurufi mushabbahati bi laysa", "xobaru af'alu muqoroba", "ismu la: allati nafil-jins", "tabi'u lil-mansub" o'rinlarida kelishi ham sanab o'tilgan. O'quvchilar ushbu ma'lumotlarni misollar yordamida yodlab olishlari, arab tilida yozilgan qadimiy qo'lyozma kitoblar, zamonaviy nashrlar, matnlarni avvalo to'g'ri o'qib, to'g'ri tarjima qilishlarida yordam beradi. Keyingi bosqichlarda esa qaysi turi qay o'rinlarda, nima sababdan kelganini chuqurroq o'rgangan holda, balog'at ilmi bilan hamohang tarzda o'rganishlari, Qur'oni karim, Hadisi shariflarning ma'nolarini yanada chuqurroq tadabbur qilishlariga, hayratlarini oshirishga sabab bo'ladi.